

BADIY ADABIYOT VOSITASIDA O'QUVCHILARDA MA'NAVIY- AXLOQIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

Bagibekova Xamida Allayarovna

Osiyo Xalqaro Universiteti “Pedagogika” yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada badiy adabiyotning tarbiyaviy imkoniyatlari o‘rganib, o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish va rivojlanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiy asarlar yordamida axloqiy tushunchalar ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib, amaliy faoliyat uchun muhim xususiyatlari izohlanadi.

Kalit so‘zlar. *Badiy adabiyot, ma’naviy-axloqiy tarbiya, o‘quvchi, ta’lim, pedagogika.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются воспитательные возможности художественной литературы и анализируются теоретические и практические аспекты формирования и развития духовно-нравственных качеств учащихся. Также с помощью художественных произведений научно и теоретически обосновываются этические понятия, объясняются их важные особенности для практической деятельности.

Ключевые слова: Художественная литература, духовно-нравственное воспитание, студент, образование, педагогика.

ABSTRACT

This article examines the educational potential of fiction and analyzes the theoretical and practical aspects of the formation and development of spiritual and moral qualities in students. Also, with the help of works of fiction, moral concepts are scientifically and theoretically grounded and their important features for practical activity are explained.

Keywords. Fiction, spiritual and moral education, student, education, pedagogy.

KIRISH

Badiy adabiyot o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, insoniy fazilatlarni shakllantirishda asosiy manba hisoblanadi. Bugungi jamiyat yoshlariga ezungilik, adolat, halollik va vatanparvarlik kabi fazilatlarni singdirish dolzarb vazifadir. Ushbu maqsadga erishishda adabiyot muhim tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Zero, bizning asosiy maqsadimiz – badiy

adabiyot orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish usullarini tadqiq qilish, bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlarni ko‘rib chiqish va buyuk adiblar ijodiga asoslangan holda amaliy takliflar berishdir.

Badiiy adabiyot orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslarini o‘rganish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu jarayon faqatgina tarbiyaviy maqsadlarni amalgaga oshirish bilan cheklanib qolmay, balki yosh avlodning shaxs sifatida kamol topishi, axloqiy qadriyatlarni chuqur anglab, hayotiy mas’uliyatni his qiladigan insonlar bo‘lib yetishishlariga ham katta hissa qo‘shadi. Shu bois, ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan, badiiy adabiyotning ma’naviy tarbiya jarayonidagi o‘rnini chuqur tahlil qilish, uning usullarini ishlab chiqish va ta’sirchanlik omillarini aniqlash bugungi zamonaviy ta’limning dolzarb vazifalaridan biridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda badiiy adabiyotning ahamiyati haqida so‘z yuritilganda, avvalo, uning mazmuni va qahramonlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari hamda jamiyatdagi mavjud axloqiy qadriyatlarga mosligi haqida atroflicha fikr yuritish lozim. Bunda yosh o‘quvchilar uchun asarlarni tanlashda ularning qiziqishlari, yosh xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish katta ahamiyatga ega. Chunki yaxshi tanlangan asar nafaqat o‘quvchining ma’naviy dunyosini boyitadi, balki unda jamiyatning yuksak axloqiy normalarini anglashga undovchi tushunchalar va his-tuyg‘ularni shakllantiradi. Masalan, o‘qilayotgan asar yoki undagi qahramonlarning ijtimoiy muhitga bo‘lgan munosabati, ularning hayotdagi ideallari va qadriyatları o‘quvchi ongida ma’lum axloqiy mezonlarni paydo qilishiga xizmat qiladi. Zotan, badiiy asarlar yosh avlodni ezgulik va insoniylikka chorlovchi kuchli vositadir. Milliy adabiyotimizning buyuk namoyandasasi Alisher Navoiy o‘z asarlarida ma’naviy tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratgan. “Mahbub ul-Qulub” asarida “ezgulik, odob, kamtarlik va bag‘rikenglik”^[1] kabi sifatlarni targ‘ib etgan.

Bundan tashqari, o‘quvchilar tomonidan o‘qib chiqilgan asarlarning adabiy tahlil qilinishi ham katta ahamiyatga ega. Chunki adabiy tahlil jarayonida o‘quvchi nafaqat asarning mazmuni va badiiy xususiyatlarini anglaydi, balki ulardan o‘z hayoti uchun zarur bo‘lgan xulosalarni chiqaradi. Ushbu jarayon shaxsning axloqiy ongida mushohada va sintezlar orqali shakllanadi va uning ma’naviy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, adabiy tahlil malakasini shakllantirish orqali o‘quvchilarda turli sifatlarni shakllantirishning muhimligi masalasini biz ilmiy jihatdan M.Mirqosimova^[2] tadqiqotlari orqali ko‘rishimiz mumkin.

Badiiy adabiyotning ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi ahamiyatini oshirish uchun milliy adabiyotimizning tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berish va o‘quvchilarga milliy ruhni singdiruvchi asarlarni o‘qitish muhimdir. Milliy adabiyot xalqimizning ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Oybek, Cho‘lpon va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlarida bu jihatlar ko‘rsatiladi. Jumladan, Abdulla Qodiriy “O‘tgan kunlar” romanidagi turli qahramonlari orqali vatanparvarlik, sadoqat, muhabbat va do‘slik kabi fazilatlarni ochib beradi[3]. Xudoyberdi To‘xtaboyev “Sariq devni minib” asarida esa o‘quvchilarda sadoqat, do‘slik va odob-axloqning jamiyatdagi ahamiyatini tushuntiradi[4]. Xususan, milliy adabiyotning mos jihatlarni hamda uzlucksiz ta’lim tizimidagi o‘rnini hamda bunday asarlarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini R.Niyozmetova[5] va boshqa ko‘plab olimlarning tadqiqotlaridan ham bilishimiz mumkin.

Shu bilan birga, jahon adabiyotining umumbashariy qadriyatlarga asoslangan asarlarini muntazam ravishda mutolaa qilish, ularni milliy adabiyotimiz bilan uyg‘unlikda tushuntirish orqali o‘quvchilarda keng dunyoqarashni shakllantirish lozim. Bu esa o‘quvchilarni nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarni qadrlaydigan va ularga amal qiladigan barkamol shaxslar sifatida tarbiyalaydi. Jahon adabiyoti o‘quvchilarga insoniyatning umumiyligi qadriyatlarini anglash imkoniyatini beradi. Masalan, Lev Tolstoyning “Anna Karenina” romanida insoniy qadriyatlар, bag‘rikenglik va halollik masalalari yoritilgan[6]. Q.Husanboyeva[7] adabiy ta’lim jarayonida mustaqil fikrlashni shakllantirish usullariga oid tadqiqotlarida bu boradagi nazariy va amaliy yo‘nalishlarni ko‘rsatib bergen.

Ta’kidlash joizki, bunday maqsadlarga erishishda faqatgina maktab darslari bilan cheklanib qolmaslik, balki umumiyligi o‘rta ta’lim tizimi adabiyot darslarida o‘quvchilarining mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish hamda sinfdan tashqari o‘qish jarayonini ham samarali tashkil etish lozim. Jumladan, A.Umarov[8]ning tadqiqotlari o‘quvchilarining mutolaaga madaniyatini oshirish, kitobxonlikka jalb qilish bo‘yicha qimmatli amaliy takliflarni beradi. Sinfdan tashqari o‘qish o‘quvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirishiga xizmat qiladi. A.Bolibekov[9]ning izlanishlari o‘quvchilarining ma’naviy dunyosini shakllantirishda sinfdan tashqari o‘qishning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatgan. Bu jarayonda yoshlarning bugungi texnologiyalarga qiziqishini inobatga olib, badiiy adabiyotni zamonaviy vositalar orqali targ‘ib qilish, turli elektron platformalar va ilovalardan foydalanish zarur. Raqamli texnologiyalar davrida elektron kitoblar, audiokitoblar va internet resurslari orqali badiiy adabiyotni targ‘ib qilish yoshlari orasida kitobxonlik madaniyatini oshiradi. Masalan, audiokitoblar, interaktiv darslar, onlayn mutolaa klublari va

boshqa texnologik imkoniyatlar yordamida o‘quvchilarni badiiy adabiyotga yanada yaqinlashtirish va ularning qiziqishini oshirish mumkin.

Badiiy adabiyot yosh avlodning ma’naviy-axloqiy rivojlanishida beba ho vositadir. Uni integratsiyalashgan tarzda o‘quv jarayoniga joriy qilish orqali yoshlarning o‘z mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ular o‘qiyotgan asarlarning hayotiy ahamiyatini chuqurroq anglashlariga erishiladi. Natijada, badiiy adabiyot o‘quvchilarning ma’naviy olamini boyituvchi, axloqiy tarbiyasini mustahkamlovchi va jamiyatga foydali shaxslarni yetishtiruvchi asosiy vositalardan biriga aylanadi. Adabiyot ta’limi jarayonini yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. Har bir yosh guruhi ga mos keladigan adabiy asarlarni tavsiya etish tizimini rivojlantirish.
2. Milliy va jahon adabiyotini uzviy bog‘lagan o‘quv dasturlarini yaratish.
3. Sinfdan tashqari o‘qish uchun alohida kitoblar ro‘yxatini shakllantirish va uni texnologik platformalarda ommalashtirish.
4. Adabiyot darslarida mushohada va munozaraga keng o‘rin berish.
5. Zamonaviy texnologiyalarni adabiyot o‘qitish jarayoniga keng joriy etish.

Bu takliflarni amalga oshirish orqali badiiy adabiyotning ta’sirchanligini oshirib, yosh avlodni ma’naviy va axloqiy jihatdan yetuk insonlar sifatida tarbiyalashga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR/ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T: Yangi asr avlod, 2019. – 316 b.
2. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. – Т: Фан, 2006. – 112 б.
3. Abdulla Qodiriy. O‘tgan kunlar. – T: Yangi Asr Avlod, 2012. – 442 b.
4. Xudoyberdi To‘xtaboyev. Sariq devni minib. – T: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 265 b.
5. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Т: Фан., 2007. – 215 б.
6. Лев Толстой. Анна Каренина., 1-4-қисм. – Т: Камалак, 2019. – 640 б.
7. Ҳусанбоева Қ.П. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 365 б.
8. Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли: Соц. фан. д-ри... дисс.а втореф. – Т., 2005. – 56 б.

9. Болибеков А.А. Адабий таълим орқали ўқувчилар ахлоқий фазилатларини такомиллаштиришда ҳадислардан фойдаланиш: Педагогика фанлари номзоди. ...дисс. – Т., 2008. – 156 б.